

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH OMILINING TARIXIY-MADANIY ASOSLARI

Annotatsiya. Milliy o'zlikni anglash insonlarning ongi va e'tiqodidagi murakkab, ko'pqirrali ma'naviy-ruhiy holat bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning barcha hodisalariga o'z ta'sirini ko'rsatib boradi. Ushbu maqolada milliy o'zlikni anglash fenomenining mohiyati, uning millatning mavjudligi hamda mustaqil sub'ekt sifatidagi maqomini mustahkamlashdagi o'rni, shuningdek milliy o'zlikni anglash tizimida davlatchilik omilining roli ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: etnos, milliy qadriyatlar, Qur'on, milliy meros, "titul" millat, tolerantlik, siyosiy barqarorlik.

ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ФАКТОРА НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация. Осознание национальной идентичности – сложное, многогранное духовно-психическое состояние сознания и верований людей, оказывающее влияние на все явления общественного развития. В статье дается социально-философский анализ сущности феномена национальной идентичности, ее роли в укреплении бытия нации и ее статуса как самостоятельного субъекта, а также роли государственного фактора в системе национальной идентичности.

Ключевые слова: этническая принадлежность, национальные ценности, Коран, национальное наследие, "титульная" нация, толерантность, политическая стабильность

HISTORICAL AND CULTURAL FOUNDATIONS OF THE NATIONAL IDENTITY FACTOR

Annotation. Awareness of national identity is a complex, multifaceted spiritual and mental state of consciousness and beliefs of people, which influences all phenomena of social development. The article provides a socio-philosophical analysis of the essence of the phenomenon of national identity, its role in strengthening the existence of the nation and its status as an independent subject, as well as the role of the state factor in the system of national identity.

Keywords: ethnicity, national values, Quran, national heritage, titular nation, tolerance, political stability

Sobiq sho'rolar davlati parchalanib, milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan sobiq ittifoqdosh respublikalarda, jumladan O'rta Osiyo davlatlarida milliy ong, milliy o'zlikni anglash, milliy g'oya, milliy tarbiya tematikasidagi tadqiqotlar ijtimoiy-gumanitar va siyosiy fanlarning dolzarb yo'nalishiga aylandi. Negaki, sho'rolar davlatining mamlakatdagi barcha xalqlarni bir-birlariga qo'shib yuborish asosida "yagona sovet xalqi"ni shakllantirish siyosati har qanday sohada milliylikni inkor qilib kelgandi. Chunki, milliy o'zlikni anglash millatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, davlatni mustaqil boshqarish, taraqqiyot modellarini tanlash va millatning kelajagiga oid etnosiyosiy munosabatlar bilan bog'liq.

Milliy o'zlikni anglashni "millat" tushunchasidan ajratgan holda tahlil qilib bo'lmaydi, shu bois bu tushunchaning mazmunini tahlil qilishga harakat qilamiz. "Millat" murakkab mazmunga ega tushuncha bo'lgani bois unga ta'rif berishda bugungi kungacha mavjud bo'lgan adabiyotlarda yakdillik yo'q. Lekin, ularni umumlashtiruvchi tomonlar mavjud. Jumladan, XX asrning 80-yillari

74 oxirida unga ta'rif berishda bir qator olimlar milliy o'zlikni anglash omiliga ustuvorlik berish kuzatila boshlanganligini ko'ramiz.

O'zbek tilida qo'llanib kelinayotgan "Millat", "milliy", "milliylik" kabi tushunchalarning negizida "Mil" iborasi yotadi. Hozirgi O'rta Osiyo xalqlarining tillarida keng ishlatilib kelinayotgan va arab tilidan olingan bu ibora VIII asrda arablar tomonidan Movarounnahr istilo qilingan vaqtda kirib kelgan edi. "Mil" tushunchasi arab tilida "o'zak", "tub mohiyat", "negiz" ma'nolarini ifodalaydi. "Millat" tushunchasi esa keng miqyosda qo'llanilib, bir necha ma'noni bildiradi: 1) din, diniy jamoa; ya'ni diniy belgilariga ko'ra birlashgan kishilar uyushmasi; 2) ummat, ma'lum dinga e'tiqod qiluvchilar jamoasi; 3) xalq, millat kabi ma'nolarni anglatadi.[1;160] Ko'rib turganimizdek, arab tilida qo'llaniladigan "millat" tushunchasi o'z lug'aviy mazmuniga ko'ra hozir tushunilib kelinayotgan mazmun-mohiyatidan ancha farq qiladi.

Qur'oni Karimning Baqara surasining 213 oyati, Yunus surasining 13 oyati, Hud surasining 118-119 oyatlari, Nahl surasining 92 oyatlarida Olloh aslida insonlarni bir ota va bir onadan yaratganligi, ya'ni odamlar bir millatda bo'lganliklari, keyin esa bo'linib ketganliklari haqida aytiladi. [2; 25, 134, 152]

Millat haqidagi tasavvurlarning diniy nuqtai nazardan talqin qilinishi barcha davrlarda ham insonlarni kelib chiqishi va ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar bir g'oya va ma'lum maqsadlar yo'lida jipslashtirishda, birlashtirishda ijobiy rol o'ynagan.

Shuningdek, "millat" atamasi o'rta asrlarda biror-bir hukmdor qo'l ostidagi aholiga nisbatan ham ishlatilgan. Masalan, Ispaniya Qirollik Akademiyasi lug'atida "millat"ga ma'lum bir "mamlakat, provinsiya yoki qirollikda yashovchi aholi birligi" deya ta'rif berilgan. Nemis ensiklopedisti Iogann Genrix sedler 1740-yilda "millat" atamasini byurgerlarga nisbatan ishlatgan.

Muqaddas Bibliya va Qur'oni Karimda millatlarning paydo bo'lishi haqidagi eng qadimgi diniy va mifologik qarashlar aks etganini ko'ramiz. Muqaddas Bibliyadagi rivoyatga ko'ra, Xudo odamlarning fosihlik va gunohga botganligidan g'azablanib, ularni "...yaratganiga pushaymon bo'lib", er yuzidan qirib yuborishga ahd qiladi. Uzoq vaqt kecha-kunduz tinimsiz yog'ib turgan yomg'ir tufayli paydo bo'lgan to'fondan so'ng butun er yuzi suv ostida qolib, butun tirik mavjudot borki, bari qirilib ketadi. To'fondan faqat o'z oilasi bilan Nuh payg'ambar va barcha jonivorlardan bir jufti uning qayig'ida jon saqlab qoladi. Keyinchalik, to'fon qaytib erda hayot boshlanganda, barcha insonlar Nuh payg'ambarning o'g'illari – Sim, Xam va Iafetning avlodlaridan tarqaladi, jonivorlar esa, Xudoning amriga ko'ra bir juftidan uning qayig'iga joylashtirilgan jonivorlarning avlodlaridir.[3;13]

Xullas, diniy kitoblarda bir dinga e'tiqod qiluvchilar yagona "millat" farzandlari sifatida belgilab berilgan. Bunday ta'limot zaminida g'oya va unga e'tiqod qilinishi asos sifatida qabul qilingan. Albatta, bunday qarashlar dunyoviy ilm nuqtai nazaridan o'rganishga zamin bo'lgan. "Millat"ga diniy nuqtai nazardan ta'rif berilishi, aksariyat holatlarda, insonlarni bir g'oya atrofida uyushishiga ijobiy ta'sir o'tkazgan bo'lsa ham, vaqt o'tishi bilan u turli dinga e'tiqod qiluvchilarni birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yish vositasiga aylanishiga olib kelgan.

Hozirgi zamon ijtimoiy-siyosiy konseptual qarashlariga muvofiq, milliy o'zlikni anglash fenomeni falsafiy, tarixiy va psixologik yondashuvlarga ko'ra insonning o'zini yon-atrofdagi boshqa "men"lardan ajratish sifatida tasnif qilinmoqda. Uzoq o'tmishdan boshlab qabila va elatlar boshqalar bilan o'zaro aloqada bo'lib kelganlar va buning natijasida ular bir-birlarining madaniy-maishiy, ilmiy, xo'jalik sohasidagi tajribalarini o'zlashtirganlar. Shu vaqtdan boshlab odamlar nafaqat boshqa xalqlar haqida, balki o'zlarining ham boshqa xalqlardan farqli tomonlari haqida tasavvurlarga ega bo'lganlar. Bu o'zlikni anglash jarayonining ilk kurtaklari edi. Aynan shu nuqtai nazardan o'zlikni anglash, idrok etish va farqlash milliy o'zlikni anglashning debochasi deyish mumkin.

Milliy davlatlarning millatning shakllanishini, jipslashuvini ta'minlashi va shu asosda o'zligini anglashini rivojlanishiga ta'sirini Yevropa xalqlari misolida qarab o'tish yanada o'rindir. Bu erda o'rta asr jamiyatidan yangi industrial jamiyatga, ya'ni kapitalistik tuzumga o'tish davrida siyosiy markazlashuv milliy davlatlar tuzilishi orqali ifodalanib, iqtisodiy markazlashuvning, turli lahjalar, shevalar qo'shilishib ketishi asosida yagona adabiy til paydo

bo'lishining tezlashuvida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ya'ni, o'z hududlarida ijtimoiy hayotni huquqiy boshqarish, ta'lim tizimi, o'ziga xos ommaviy axborot vositalari orqali milliy o'zlikni anglashning rivojlanishiga va millatning jipslashuviga xizmat qildilar.

Ayni paytda, iqtisodiy va siyosiy markazlashuv bir-biriga bog'lanib, bir-biriga ta'sir etib boradi. Tili, madaniyati, kelib chiqishi yaqin bo'lgan elatlar yashayotgan hududning yagona davlat qo'lida birlashtirilishi bu jarayonning tezlashuviga yordam beradi. Ya'ni, milliy davlatchilikning shakllanishi o'zida konsolidatsiyaning yangi asos va mexanizmlarini yaratadiki, u murakkab ijtimoiy aloqalarni tartibga solib, mamlakatning barcha fuqarolarini etnik va tabaqaviy mansubligidan qat'iy nazar madaniy, ijtimoiy va siyosiy birligini anglash hamda his etishini muvofiqlashtiradi.

Yevropaning Angliya, Fransiya kabi eng yirik davlatlari uchun bu misol ayniqsa o'rinlidir. Shunday qilib, har bir hududning tarixiy taraqqiyotidagi ana shunday o'ziga xos tomonlar xalqlarning milliy o'zligini anglashida o'z ifodasini topadi. O'z hududiy birligiga ega bo'lgan milliy davlat ijtimoiy-iqtisodiy turmush kechirishda ham tartib-qoidalarga ega bo'lib, milliy urf-odatlar va an'analarni rivojlantirishdan bevosita manfaatdor bo'lgan. [4; p.22.]

Bizningcha, shu tufayli ham Yevropada milliy davlat va millatlarning shakllanishi nisbatan tekis va barqaror kechgan.

Yevropa davlatlarining siyosiy markazlashuvi natijasida milliy davlatlarning vujudga kelishi millatlarning shakllanishi va jipslashuvida muhim rol o'ynagan edi. Bu jarayonlarning Yevropaning keyingi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotiga ta'sirini turk olimi Ziyo Ko'kalp Yevropa xalqlarining millat sifatida o'zligini anglashi darajasining yuksakligi bilan bog'lagan edi. Bundan chiqadigan konseptual g'oya shuki, milliy o'zlikni anglashning darajasiga etnik guruhning tarixiy taraqqiyot yo'li katta ta'sir ko'rsatar ekan. Demak, milliy o'zlikni anglash millatning mavjudligi, rivojlanishining muhim omili, shuningdek, millatning moddiy va ma'naviy manfaatlarining konkretlashgan nazariy ifodasidir.

Haqiqatan ham, Yevropada milliy markazlashgan davlatlarning katta qismi XV - XVI asrlardayoq vujudga kelgan edi. Bu davlatlar aholisining savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalari, davlat, millat haqida shakllangan tasavvurlari bir necha asrlardan bo'yon o'zgarmasdan kelayapti.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, milliy o'zlikni anglash to'satdan yoki tasodifan paydo bo'lmaydi, uni odamlar ongiga va jamiyat hayotiga majburan singdirish ham mumkin emas. U millatning butun tarixiy taraqqiyoti davrida shakllanib, ma'lum sharoitlardagi imkoniyatlar, ehtiyojlar taqozosi tufayli tobora rivojlanib, takomillashib boraveradigan jarayondir. Shuning uchun ham o'zlikni anglash muammosini ilmiy tahlil qilish tarixiy taraqqiyotning barcha davr va omillarini yaxlit o'rganishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ислом энциклопедияси. –Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2004.
2. Курьони Карим. (Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. –Т.: “Чўлпон”, 1992.
3. The Bible. The Old Testament. Book of Genesis. “Российское Библейское Общество”, –М., 1997. Глава 11. -р.13.
4. Руткевич М.Н. Теория нации: вопросы философии // Вопросы философии. –М., 1999.-№5. -р.22.
5. Яблокова Е.А. Субъекты общественной психологии. Теоретическая и прикладная социология. –М., “Мысль”, 1998.